

Poytaxtimizning “Avayxon”, “Yangi Avayxon”, “Ming lola” mahallalarida imtiqomat qilayotgan aholi uchun taqdim qilingan madaniy-ma’rifiy tadbir



Har xil janrdagi qo'shiqlar, sho'x o'yinlar, maromiga yetkazib ijro etilgan taqlidlar. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining professor-o'qituvchilari, yurtimizning taniqli san'atkorlari, talabalar tomonidan "Mahallada duv-duv gap" shiori ostida poytaxtimizning "Avayxon", "Yangi Avayxon", "Ming lola" mahallalarida imtiqomat qilayotgan aholi uchun taqdim qilingan madaniy-

ma'rifiy tadbir dasturi ushbu jihatlarni qamrab oldi.



Tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev so'zga chiqib, mamlakatimizda davlatimiz tomonidan mahallalarga berilayotgan e'tibor, keyingi paytlarda butunlay yangicha qiyofa kashf etayotgan ushbu maskanlarda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari haqida gapirdi.



Institutimiz tomonidan “Vatan ichra vatan”, - deya ta’rif olgan ana shunday 65 ta obod maskanda “Mahallada duv-duv gap” loyihasi asosida aholi uchun madaniy-ma’rifiy tadbirlar o’tkazilishi rejalashtirilgan.



Shundan keyin navbat kuy, ashulalarga berildi. Elimiz suygan san'atkorlar tomonidan xorazmcha usulda ijro qilingan sho'x qo'shiqlar barchaning qalbiga ko'tarinki kayfiyat, cheksiz xursandchiliklarni tuhfa etdiki, mahalla ahli o'z shodliklarini yashira olmasdan davrani to'ldirib raqsga tushishdi.



Sohir ovoz sohibi bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan maromiga yetkazib ijro qilingan ashulalar esa kishilarga ma'naviy oziqa ulashdi.



Ayniqsa, institutimiz talabasi tomonidan respublikamizning taniqli aktyorlari, qiziqchilari, kino yulduzlarining ovozlari qilingan taqlidlar ishtirokchilarning shodon kulgilariga sabab bo'ldi.



Barcha chiqishlar faqat jonli ijrodan tashkil topgan konsert davomida mahalla ahli san'atkorlarning har bir chiqishini o'zlarining gulduros qarsaklari ostida qo'llab turishdi va bu institut professor-o'qituvchilari, talabalarni yanada ilhomlantirdi.



“Mahallada duv-duv gap” shiori ostidagi ana shunday madaniy-ma’rifiy tadbirlar poytaxtimiz mahallalarida davom etadi.

Matbuot kotibi